

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ASQAROV MIRZOXID MIRJALOL O‘G‘LI

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA REABILITATSIYA
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Asqarov Mirzoxid Mirjalol o‘g‘li Ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini takomillashtirish.....	5
Аскарлов Мирзохид Миржалол угли Совершенствование института реабилитации на стадии досудебном производстве.....	25
Askarov Mirzakhid Mirjalal ugli Improving the Institute of rehabilitation at the stage of pre-trial proceedings.....	48
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список о опубликованных работ List of published works.....	52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ASQAROV MIRZOXID MIRJALOL O‘G‘LI

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA REABILITATSIYA
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.3.PhD/Yu1182 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (<http://library.ziyonet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Toxirov Farxod Toxirovich

yuridik fanlar doktori, professor

Allanazarov Oybek Davronovich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 30-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “____” _____ №____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari qonunchiligida jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo tayinlash hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxsning javobgarlikka tortilmasligini ta‘minlash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shunday bo‘lsa-da, qonun normalarida reabilitatsiya institutini qo‘llash mexanizmlari bilan bog‘liq kollizion holatlarning mavjudligi, tergov bosqichida aybsiz deb topilgan shaxslarning vakolatli organlarga murojaat etish va ularning buzilgan huquqlarini to‘liq tiklash tartibining murakkabligi, jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslar protsessual mustaqilligining amalda to‘liq ta‘minlanmaganligi, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari faoliyatida suiiste‘molchiliklar yuzaga kelayotganligi ayrim vaziyatlarda aybsiz shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lmoqda. “Birgina odil sudlov faoliyati eng rivojlangan AQSHda 1973-yildan shu kunga qadar o‘lim jazosiga hukm qilingan shaxslardan 190 nafari oqlangan”¹. National Registry of Exonerations xalqaro tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, “bugungi kunda dunyoda jazo o‘tayotgan mahbuslarning 4-6 foizini asossiz jinoiy javobgarlikka tortilganlar tashkil etadi”².

Jahonda reabilitatsiya institutiga doir mavjud qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiya qilish, jinoyat-protsessual faoliyatning ochiqligi va shaffofligini, ishni sudga qadar yuritish bosqichida taraflarning tengligini ta‘minlash, jinoyat-protsessual munosabatlarda reabilitatsiya etish asoslarini to‘g‘ri qo‘llash, bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularda reabilitatsiya etilgan shaxsga qoplanishi lozim bo‘lgan mulkiy ziyon hamda ma‘naviy zarar miqdorlarini aniq belgilash, dalillarni protsessual rasmiylashtirish faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro standartlar asosida sud-tergov faoliyatini takomillashtirish, jinoyatlarni tergov qilish sifatini ta‘minlovchi qonun hujjatlarida uchraydigan jinoyat-protsessual muammolar kabi dolzarb masalalar tadqiq etilmoqda.

Respublikada tergov organlarini isloh qilish, jinoyatlarni tergov qilishda uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish orqali “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tergov idoralari tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining (bundan keyin matnda JPK deb yuritiladi) 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra tugatilgan jinoyat ishlari 2021-yilga nisbatan 2023-yilda 29,4 foizga³, sudlar tomonidan oqlangan shaxslar 2017-yilga nisbatan 2023-yilda 373 foizga⁴ oshganligi reabilitatsiya institutini to‘g‘ri qo‘llash, uning asoslari va tartibini aniq belgilash, reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan mulkiy ziyon miqdori va ma‘naviy zarar

¹ What percentage of criminal verdicts are inaccurate...-Quora. www.quora.com. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 2023-yil 8-aprel.)

² A project of the University of California irvine newkirk center for science & society, university of michigan law school & michigan state university college of law/ <https://www.law.umich.edu/special/exoneration/Pages/about.aspx>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 2023-yil 19-noyabr.)

³ IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan taqdim etilgan ma‘lumot.

⁴ Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning 2018-2023-yillar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari.<https://stat.sud.uz/> (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 06.01.2023).

oqibatlarini aniqlash va to'liq bartaraf etish, shaxsning buzilgan boshqa huquqlari doirasini o'rganish va tiklash masalalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 3-sentyabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan G'.A. Abdumajidov, J.K. Ataniyazov, Z.F. Inog'omjonova, D. Kamalxodjeyev, B.B. Murodov, B.A. Rajabov, A.X. Raxmonqulov, S.M. Raxmonova, B.N. Rashidov, A.Ya. Sattarov, T.T. Tadjiyev, U.A. Tuxtashева, G.Z. To'laganova va N.O. Shodiyevlar tomonidan ilmiy ish va nashrlarda jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish hamda shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashga doir masalalar tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari S.A. Betrozov, V.V. Boysova, A.F. Gorkina, A.G. Edilyana, G.Z. Klimova, I.A. Libus, M.V. Maksimenko, D.Melossi, N.I. Mirolyubov, T.V. Moguylo, A.A. Orlova, M.Pavarini, A.A. Podoprighora, N.E. Shalumovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarida reabilitatsiya institutiga doir muayyan masalalar tadqiq etilgan.

Biroq, ishni sudga qadar yuritish bosqichida qisman reabilitatsiya etishning asoslari va protsessual tartibini joriy etish, tergov bosqichida aybsiz deb topilgan shaxslarga qoplanishi lozim bo'lgan mulkiy ziyon va ma'naviy zararining miqdorini aniq belgilash, shuningdek, reabilitatsiya institutiga oid qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq umumnazariy va amaliy tUSDagi vazifalar atroflicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston

Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari (2022–2024)” mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

reabilitatsiya tushunchasi va uning jinoyat-protsessual munosabatlardagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

reabilitatsiya institutining vujudga kelishi va rivojlanishini retrospektiv tahlil qilish;

reabilitatsiya asoslari, shartlari va protsessual tartibini nazariy-huquqiy jihatdan o‘rganish;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini qo‘llash amaliyoti va bu boradagi mavjud muammolarni o‘rganish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligidagi reabilitatsiya institutini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va ularning ilg‘or tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash va ma‘naviy zarar oqibatlarini bartaraf etish, ularning buzilgan boshqa huquqlarini tiklash amaliyotini o‘rganish hamda qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotidagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektni ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini qo‘llashga doir ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiyaga oid normalarni qo‘llash jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro shartnoma va kelishuvlar mazmuni, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek, statistik ma‘lumotlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, suhbat intervyu, kuzatish, qiyoslash, anketa so‘rovi usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilib, qonunda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilingan shaxs, kelgusida reabilitatsiya etilgan taqdirda, uning yo‘qotilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qonunchilikda belgilangan tartibda qaytadan berish yo‘li bilan tiklash haqidagi qoidani qonunchilikda aks ettirish zarurati asoslantirilgan;

shaxs JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra reabilitatsiya etilgan taqdirda, bu haqda tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror reabilitatsiya etilgan shaxsga, u vafot etgan bo‘lsa uning yaqin qarindoshlariga yoki qonuniy vakiliga yozma ravishda uzrnoma yuborishi, shuningdek uning oldingi istiqomat

qilgan mahallasi va ish joyiga bir oy ichida xabarnoma yuborish zarurati asoslantirilgan;

sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bilan aybdor deb topilib, fotosurati mahalla fuqarolar yig'ini binosidagi e'lonlar taxtasiga ilingan shaxs kelgusida oqlangan taqdirda, profilaktika (katta) inspektori tomonidan uning fotosurati va sodir etgan jinoyati to'g'risidagi ma'lumotni mahalla fuqarolar yig'ini binosidagi e'lonlar taxtasidan darhol olib tashlash zarurati asoslantirilgan;

reabilitatsiya etilgan shaxs bo'yicha o'tkazilgan jinoyat muhokamasi yuzasidan uch kun muddat ichida raddiya tayyorlanib, bir oy muddatga mahalla fuqarolar yig'ini binosidagi e'lonlar taxtasiga joylashtirish amaliyotini joriy etishni qonunchilikda aks ettirish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy yondashuv asosida so'nggi besh yilda ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari tomonidan reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatilgan jinoyat ishlari, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorlar, sudlarning oqlov hukmlari, buning sabablari hamda dinamikasi yillar, hududlar, shaxslar, jinoyat turlari, qo'llanilgan ehtiyot choralari kesimida tahlil qilinib, JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra jinoyat ishini, shuningdek jinoyat ishining bir qismini, ya'ni ayblovni tugatish to'g'risidagi qarorlarning namunaviy loyihalari ishlab chiqilgan;

reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan mulkiy ziyonning doirasi va miqdorini aniqlab, to'liq qoplanilishini ta'minlash bo'yicha tergov organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida tergov va protsessual harakatlarni o'tkazish va rasmiylashtirishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarning obyektiv va subyektiv omillari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning oldini olish va jinoyat ishini sifatli tergov qilish borasida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan;

“ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermaganligi”, “uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa” va “uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa” degan asoslarning mazmun-mohiyati hamda ularni qo'llashning huquqiy oqibatlarida mavjud farqlari batafsil yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlarning qonunni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribasi, sotsiologik tadqiqotlar (anketa so'rovi, suhbat intervyu) hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh Prokuraturasi va Oliy sudi ma'lumotlaridan foydalanilgan, o'rganilayotgan institutni yanada takomillashtirish istiqbollari o'ldirilgan bo'yicha 810 nafar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov, 205 nafar prokuratura va advokatura, 55 nafar sud hamda 156 nafar ilmiy-pedagog xodimlar o'rtasida so'rov o'tkazilgan, shuningdek, 300 dan ortiq tergovga

qadar tekshiruv hujjatlari, jinoyat ishlari va sud hukm (ajrim)lari o'rganilib, natijalar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek "Tergovga qadar tekshiruv", "Jinoyat-protsessual huquq", "Tergov faoliyati", "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" va "Kriminalistik taktika va metodika" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda namoyon bo'ladi, tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini qo'llashga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutiga oid qonunchilik normalaridagi bo'shliqlarni to'ldirish, huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud xato va kamchiliklarni bartaraf etish, reabilitatsiya asoslarini to'g'ri qo'llash, qisman reabilitatsiya etish asoslarini kengaytirish, sohaga oid yangi qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida reabilitatsiya institutini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

amadagi Jinoyat-protsessual qonunchiligida reabilitatsiya etilgan shaxsning O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qayta tiklash asoslari va tartibi belgilanmaganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 310-moddasini "jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilib, qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilingan shaxs, kelgusida reabilitatsiya etilgan taqdirda, uning yo'qotilgan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi qonunchilikda belgilangan tartibda qaytadan berish yo'li bilan tiklanadi" mazmunidagi oltinchi qism bilan to'ldirish haqidagi taklifidan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-iyuldagi 3/08-117-son dalolatnomasi.) Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi reabilitatsiya etilgan shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qayta tiklashga, shaxsning buzilgan konstitutsiyaviy huquqini tiklashga xizmat qiladi;

ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasi asosida reabilitatsiya etilgan shaxsga, u vafot etgan bo'lsa uning yaqin qarindoshi yoki qonuniy vakiliga bir oy muddatda yozma ravishda uzrnoma yuborish amaliyotini joriy etish zaruratini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 309-moddasini quyidagi mazmundagi "shaxs ushbu Kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra reabilitatsiya etilgan taqdirda, bu haqda tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror reabilitatsiya etilgan shaxsga, u vafot etgan bo'lsa uning yaqin qarindoshlariga yoki qonuniy vakiliga yozma ravishda uzrnoma yuborishi, shuningdek uning oldingi istiqomat

qilgan mahallasi va ish joyiga bir oy ichida xabarnoma yuborishi shart” ikkinchi qism bilan to‘ldirishga oid taklifidan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-iyuldagi 3/08-117-son dalolatnomasi.) Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi reabilitatsiya etilgan shaxslarning davlatga bo‘lgan ishonchini qayta tiklashga, ularga yetkazilgan ma’naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi;

sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bilan aybdor deb topilib, fotosurati mahalla fuqarolar yig‘ini binosidagi e‘lonlar taxtasiga ilingan shaxs kelgusida oqlangan taqdirda, uning fotosurati va sodir etgan jinoyati to‘g‘risidagi ma’lumotni profilaktika (katta) inspektori tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini binosidagi e‘lonlar taxtasidan darhol olib tashlashga doir taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentyabrdagi “Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 565-son qarorining 25-bandi ikkinchi xatboshisida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-iyundagi 15/23-39-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan ma’naviy zarar oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qilgan;

reabilitatsiya etilgan shaxs bo‘yicha o‘tkazilgan jinoyat muhokamasi yuzasidan uch kun muddat ichida raddiya tayyorlanib, bir oy muddatga mahalla fuqarolar yig‘ini binosidagi e‘lonlar taxtasiga joylashtirish amaliyotini joriy etish tashlashga doir taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentyabrdagi “Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 565-son qarorining 25-bandi ikkinchi xatboshisida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-iyundagi 15/23-39-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif reabilitatsiya etilgan shaxslarning o‘zi istiqomat qilgan mahallasida ularning avvalgi pok nomini, mavqeini va obro‘-e’tiborini qayta tiklash orqali ma’naviy zarar oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 2 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 2 ta, xalqaro jurnallarda 3 ta, ilmiy anjumanlarda 9 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O‘zbekiston Respublikasi fan

va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ishning oʻrganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, amaliyotga joriy etilishi, ular boʻyicha nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jinoyat protsessida reabilitatsiya institutining ijtimoiy-huquqiy zarurati”** deb nomlangan boʻlib, unda dissertant “reabilitatsiya”, “jinoyat-protsessual huquqiy reabilitatsiya”, “reabilitatsiya etilgan shaxs” tushunchalarini oʻzaro uzviylikda ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etgan. Xususan, S.A. Betrozov, V.V. Boysova, A.F. Gorkina, D. Kamalxodjeyev, I.A. Libus, B.B. Murodov, B.N. Rashidov, A.Ya. Sattarov, T.T. Tadjiyev, U.A. Tuxtasheva, N.O. Shodiyev singari olimlarning fikrlari, xorijiy davlatlarning (Amerika Qoʻshma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, Qirgʻiziston Respublikasi, Qozogʻiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Armaniston Respublikasi va Belarus Respublikasi) qonunchiligi hamda sud-tergov amaliyoti xodimlari va himoyachilar oʻrtasida oʻtkazilgan anketa soʻrovnomalari natijalari atroflicha tahlil qilinib, amaldagi jinoyat-protsessual qonunda “reabilitatsiya”, “jinoyat-protsessual huquqiy reabilitatsiya” hamda “reabilitatsiya etilgan shaxs” tushunchalarining mazmuni toʻliq yoritib berilmaganligi asoslantirilgan.

Dissertantning fikricha, reabilitatsiya institutini takomillashtirishda, avvalambor, uning ilmiy-nazariy asoslariga, “reabilitatsiya” tushunchasining mazmuni va ahamiyatiga oydinlik kiritish hamda jinoyat-protsessual munosabatlardagi “reabilitatsiya” atamasini boshqa ijtimoiy munosabatlardagi reabilitatsiyadan farqlash lozim. Muallif ushbu masalada jinoyat-protsessual nazariyadagi mavjud fikrlarni chuqur tadqiq etgan holda reabilitatsiya institutining mohiyatini toʻliq qamrab oladigan ilmiy-nazariy taʼrif ishlab chiqish zaruratini asoslab bergan.

Tadqiqotchi qadimgi va oʻrta davrlardagi reabilitatsiya oʻrnida foydalanilgan huquqiy atamalarni, “reabilitatsiya” tushunchasini oʻzbek atamashunosligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari, ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxsni reabilitatsiya etish bilan bogʻliq protsessual harakatlar doirasi va ushbu bosqichda qabul qilinadigan qarorlar asosida reabilitatsiya institutini yangi mazmunda ifodalash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelgan. Shuningdek, ilmiy manbalar, xalqaro hujjatlar, milliy va xalqaro lugʻat, ensiklopediya, Butunjahon internet tarmogʻida keltirilgan manbalar, xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlari hamda D. Kamalxodjeyev, G.Z. Klimova, M.V. Maksimenko, T.V. Moguylo, B.B. Murodov, B. Mustafoyev, T.T. Tadjiyev, U.A. Toʻxtasheva, D.N. Ushakov, N.E. Shalumova, A.G. Edilyana va boshqa olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilgan holda *“Jinoyat-protsessual huquqiy reabilitatsiya”* atamasiga mualliflik taʼrifini ishlab chiqqan.

Ilmiy tadqiqot davomida dissertant amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda reabilitatsiya etilgan shaxsning huquqiy maqomi belgilanmaganligi, shaxs qachon reabilitatsiya etilgan deb topilishi hamda reabilitatsiya etilmagan shaxsdan qanday huquqiy oqibatlarga ko'ra farq qilishi kabi masalalarni nazariy-huquqiy jihatdan tartibga solinmaganini asoslantirib, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Armaniston Respublikalari va milliy jinoyat-protsessual qonun normalari hamda S.A. Betzov, G.M.Shodiyev va boshqa olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilgan holda "reabilitatsiya etilgan shaxs" atamasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi reabilitatsiya instituti qonunga xilof ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning qonuniy kafolati ekanligi, qolaversa, ularga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash va ma'naviy zarar oqibatlarini bartaraf etishni ta'minlash, fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini kuchaytirishda *ijtimoiy-siyosiy, jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual* jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini asoslagan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida reabilitatsiya institutining paydo bo'lishi va rivojlanishini *retrospektiv tahlil qilib*, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini kompleks tarzda o'rganib, reabilitatsiya institutining tarixiy rivojlanish bosqichlarini quyidagi besh davrga bo'lgan holda o'rganagan:

birinchi davr milodiy VII-VIII asrlarga qadar bo'lgan davrlarni qamrab oladi. Bunda mamlakatimiz hududidagi zardushtiylik dini, "Avesto" kitobi va o'sha davrlardagi umumqoidalar sanalgan odat normalaridagi sud-huquq masalalariga oid ma'lumotlar tahlil qilingan;

ikkinchi davr milodiy VIII asrdan XX asrning boshiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bunda arablarning mamlakatimiz hududiga kirib kelishi va islom dinining keng yoyilishi natijasida huquq tizimidagi odat normalari bilan birga, islom diniga xos an'ana, qadriyat, axloqiy va shar'iy normalar, muqaddas "Qur'oni karim" kitobi, fiqh olimi Burxoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya" asari, Amir Temur va temuriylar davridagi "Temur tuzuklari" hamda chor Rossiyasi davridagi "Jinoiy sudlov ishlarini yuritish to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solingan sud-huquq tizimi o'rganilgan;

uchinchi davr 1917-1991-yillarni qamrab oladi. Bu davr milliy huquq tizimiga romana-german huquq oilasi qoidalari kirib kelganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu davrda reabilitatsiya institutining paydo bo'lishi va rivojlanishi 1917-yil 24-noyabrdagi "Sudlar to'g'risidagi 1-son Dekret", 1919-yil 17-iyundagi "Yagona Xalq sudlari to'g'risida"gi nizom, O'zbekiston SSRning JPKlari (1926, 1929, 1959), Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi Markaziy qo'mita siyosiy Byurosining (KPSS) 1988-yil 11-iyuldagi "30-40-yillar va 50-yilning boshida qonunga xilof ravishda qatag'on qilinganlarga nisbatan ko'rilgan ishlarni reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 1989-yil 16-yanvarda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "1930, 1950-yillarda siyosiy ishlar bo'yicha asossiz qabul qilgan qarorlarini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni asosida tartibga solish xususiyatlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilingan;

to'rtinchi davr 1991-2017-yillarni qamrab oladi. Ushbu davr doirasida O'zbekiston Respublikasining 1994-yilda qabul qilingan JPK, Oliy sud Plenumining

2000-yil 28-apreldagi “Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 7-son qarori hamda 20 dan ortiq qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlardagi rehabilitatsiya institutiga oid normalar tadqiq etilgan;

beshinchi davr 2017-yildan shu kunga qadar amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda tergov organlari va sudlar faoliyatida rehabilitatsiya institutini qo‘llash amaliyoti keskin ko‘payganligi e’tirof etilib, 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi”, shuningdek Oliy sud Plenumining “Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi hamda “Rehabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorlari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan huquqni qo‘llash amaliyotida JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra jinoyat ishini yoki ayblovni tugatish haqidagi qarorlarning qaror qismini bayon etishda “jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmaganligi sababli JPKning 83-moddasi 1-bandi bilan jinoyat ishi tugatilsin”, “jinoyat tarkibi aniqlanmaganligi sababli JPKning 83-moddasi 1-bandiga asosan tugatilsin”, “jinoyat alomatlari aniqlanmaganligi sababli harakatdan tugatilsin”, “jinoiy hodisa yuz bermaganligi sababli jinoyat ishi harakatdan tugatilsin” kabi yangilish jumladan foydalanilayotganligi asosli tanqid qilingan. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, tadqiqot ishi doirasida JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha jinoyat ishi yoki ayblovni tugatish to‘g‘risidagi qarorlarning namunaviy loyihalari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishni sudga qadar yuritishda rehabilitatsiya institutini qo‘llashning umumiy shartlari”** nomli ikkinchi bobida rehabilitatsiya asoslari, shartlari va protsessual tartibi nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etilib, asosiy e’tibor tadqiqotchi tomonidan ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribasi va olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan holda ishni sudga qadar yuritish bosqichida rehabilitatsiya institutini qo‘llash davomida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotchi 2019-2023-yillar davomida rehabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatilgan hamda oqlov hukmlariga sabab bo‘lgan 300 dan ortiq jinoyat ishlarida tergov organlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni o‘rganib, ularni yillar, hududlar, shaxslar, jinoyat turlari, qo‘llanilgan ehtiyot choralari kesimida tahlil qilgan.

Huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili, jinoyat ishini tergov qilish paytida yangi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilinishi natijasida qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan hollarda jinoyat ishi JPKning 84-moddasi beshinchi qismining 1-bandiga asosan tugatilayotganligini ko‘rsatdi. E’tiborlisi, aynan bu kabi holatlarda sudlar tomonidan jinoyat ishlari JPKning 83-moddasi 2-bandi bilan tugatilmoqda. Tadqiqot ishida tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan organlar tomonidan qonun normalarini har xil qo‘llanilishi ko‘plab jinoyat ishlari va oqlov hukmlari

misolida tadqiq etilib, rehabilitatsiyaga oid normalarni to'g'ri qo'llash orqali bu boradagi amaliyotni birxillashtirish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Milliy va xalqaro qonunchilikda rehabilitatsiya etiladigan subyektlarning tasnifiga oid yagona yondashuv yo'qligi, bu esa jinoyat-protsessual munosabatlarda ko'plab ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, milliy qonunchiligimizda mahkumlarning huquq va manfaatlarini, xususan, ularning rehabilitatsiyaga oid huquqlarini yetarli darajada ta'minlanmaganligini ko'rsatadi. Mazkur omillar inobatga olinib, dissertant tomonidan A.F. Gorkina, I.A. Libus va B.B. Murodovlarning ilmiy qarashlarini yanada rivojlantirgan holda rehabilitatsiya subyektlari doirasiga jinoiy javobgarlikka tortilgan mahkum va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarni ham kiritish zarurligi asoslantirilgan.

Rehabilitatsiya etilgan shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash jarayonini imperativ (qat'iy) va dispozitiv guruhlarga ajratish lozim. Chunki, aksariyat rehabilitatsiya etilgan shaxslar faqat buzilgan ayrim turdagi huquqlarini tiklash uchungina murojaat qiladi. Masalan, qonunga xilof ravishda ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etilgani uchun lavozimi (vazifasi)dan chetlatilib, shaxs rehabilitatsiya etilgan vaqtda pensiya yoshida bo'lsa va ishlashni xohlamasa, uni ishga tiklash masalasini ko'rib chiqish samarasiz hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, jinoyat-protsessual huquq nazariyasida rehabilitatsiya etilgan shaxsning aynan qaysi huquqlari tiklanishi majburiyligi va qaysi huquqlari uning ixtiyoriga bog'liq holda tiklanishi mumkinligini nazariy jihatdan ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, "jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning huquqiy maqomi belgilanmaganligi, ularning buzilgan huquqlarini tiklashda ko'plab tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda"⁵. Tadqiqotchi milliy qonunchiligimiz tahlili asosida rehabilitatsiya etilgan shaxsning huquqiy maqomining yetarli darajada tartibga solinmaganligini e'tirof etib, ularning huquqiy maqomini jinoyat-protsessual qonun normalarida belgilash zaruratini asoslab bergan.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda fuqarolikdan mahrum qilinishi mumkin. Lekin, kelgusida ushbu shaxslar oqlangan taqdirda, ularning yo'qotgan fuqaroligini tiklash masalasi amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda tartibga solinmagan. Vaholanki, sud-tergov amaliyotida shaxs qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortilishi va fuqaroligini yo'qotmasligiga kafolat mavjud emas. Bu kabi salbiy holatlarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida dissertant tomonidan JPKning 310-moddasini quyidagi mazmunda to'ldirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan: *"Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilib, qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilingan shaxs, kelgusida rehabilitatsiya etilgan taqdirda, uning yo'qotilgan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi qonunchilikda belgilangan tartibda qaytadan berish yo'li bilan*

⁵ United Nations Office on Drugs and Crime // <http://www.unodc.org/> (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 10.09.2022).

tiklanadi”. Anketa so‘rovida ishtirok etgan respondentlarning 82 foizi ushbu taklifni qo‘llab-quvvatlagan.

Amaldagi JPK 84-moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, jinoyat ishi tugatilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Lekin ushbu Kodeksning 374-moddasida jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qaror bilan vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlariga xabar qilish masalasi qonun chiqaruvchining e‘tiboridan chetda qolgan. Bu esa, o‘z navbatida huquqni qo‘llash amaliyotida tergov organlari tomonidan tugatilgan jinoyat ishlari bo‘yicha vafot etgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlariga xabar bermasligiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, shaxsning yaqin qarindoshlari vafot etgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini aybsiz deb hisoblasa-da, uning reabilitatsiya etilishi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda murojaat etish imkoniyatiga ega bo‘lmayapti. Aynan mazkur omillarni inobatga olib, tadqiqotchi qonundagi mazkur bo‘shliqni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. Tergov idoralari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra, respondentlarning 61 foizi, tugatilgan jinoyat ishi haqida vafot etgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlariga xabar berish amaliyoti mavjud emasligini ma‘lum qilgan.

Tadqiqotda JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha tugatilgan jinoyat ishlari, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentidan olingan statistik ma‘lumotlar va oqlov hukmlari tahlillari asosida, tergov idoralari tomonidan so‘roq qilish, yuzlashtirish, ekspertiza tayinlash, narsa va hujjatlarni ko‘zdan kechirish kabi tergov harakatlarini sifatsiz o‘tkazish, jinoyat ishlarini to‘g‘ri va to‘laqonli hal etilishi uchun ahamiyatga molik bo‘lgan holatlarga oydinlik kiritmaslik, shaxsning aybini isbotlovchi yetarli dalillar to‘planmaganligi hamda o‘tkazilgan tergov va protsessual harakatlarni rasmiylashtirishda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar ayrim jinoyat ishlarini (75,6 foizi) reabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatilishiga hamda haqiqiy aybdor shaxslarni javobgarlikdan qutulib qolishiga sabab bo‘layotganligi aniqlanib (so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 72 foizi yuqoridagi tergov harakatlarini o‘tkazishda yo‘l qo‘yilayotgan xatolar sudda shaxslarni oqlanishiga sabab bo‘layotganini bildirgan), bu kabi holatlarning oldini olish bo‘yicha e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi e‘lon qilingan bir nechta ayblovdan loaqal bittasining tugatilishi yoki bir ayblovning yengiliga qayta malakalanishi natijasida shaxsga e‘lon qilingan ayblov faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sifatida baholangan hollarda unga nisbatan qo‘llanilgan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi protsessual majburlov choralari bekor qilinishi va shaxs qisman reabilitatsiya etilishi lozimligini qayd etgan. Anketa so‘rovida ishtirok etgan respondentlarning 58 foizi ushbu taklifni qo‘llab-quvvatlagan. Shuningdek, bu kabi holatlar amaldagi JPKning 303-moddasida nazarda tutilmaganligi hamda qisman reabilitatsiya faqat sud muhokamasi natijalari bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar bilan cheklanganligi dissertant tomonidan qonundagi bo‘shliq sifatida e‘tirof etilib, qisman reabilitatsiya institutini ishni sudga qadar yuritish bosqichida qo‘llash zarurati mavjudligini asoslab bergan.

Dissertant tergovga qadar tekshiruv va tergov organlarining JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra qabul qilgan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi shaxslarni reabilitatsiya etish bo'yicha qarorlari sudlarning oqlov hukmlari bilan teng yuridik kuchga egaligini asoslantirib, JPKning 301-moddasini to'ldirish yuzasidan takliflar ishlab chiqqan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Reabilitatsiya institutini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanib, unda reabilitatsiya institutini qo'llash asoslari, shartlari va protsessual tartibi, shuningdek aybsiz deb topilgan shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash va ma'naviy zarar oqibatlarini bartaraf etish, ularning buzilgan boshqa huquqlarini tiklashga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ko'plab ilg'or xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunlari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida reabilitatsiya institutining qo'llash mexanizmini yanada takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Dissertant 30 dan ortiq ilg'or xorijiy davlatlarning qonunchiligini o'rganib, Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Armaniston va Belarus kabi Respublikalarning reabilitatsiya institutiga oid ayrim ijobiy tajribalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zaruratini asoslab bergan.

Tadqiqotda, rivojlangan davlatlarning reabilitatsiya bilan bog'liq huquqiy hujjatlarini tartibga solish mexanizmlari o'rganilib, ular quyidagi uch guruhga bo'lingan:

birinchi guruh, reabilitatsiyaga oid huquqiy hujjatlar faqat JPK bilan tartibga solingan davlatlar (*Avstriya, Portugaliya, Polsha, Ruminiya Respublikalari, Braziliya va Germaniya Federativ Respublikalari, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya (Janubiy) Respublikasi, Shveysariya Konfederatsiyasi, Ispaniya Qirolligi, Armaniston Respublikalari*);

ikkinchi guruh, reabilitatsiyaga oid huquqiy hujjatlar faqat qonunlar bilan tartibga solingan davlatlar (*Ukraina, Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Italiya Respublikalari*);

uchinchi guruh, reabilitatsiyaga oid huquqiy hujjatlar JPK va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan davlatlar (*Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston, Belarus, Moldova, Gruziya, Estoniya, Ozarbayjon, Albaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi*).

Dissertant tomonidan huquqni qo'llash amaliyotiga oid statistik ma'lumotlar tahlili hamda ilg'or xorijiy davlatlarning (AQSH, Braziliya, Filippin, Turkiya va Germaniya) tajribasini o'rganish asosida reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni to'liq qoplash va ma'naviy zarar oqibatlarini qisqa muddatlarda bartaraf etish maqsadida *“Reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash va ma'naviy zarar oqibatlarini bartaraf etish jamg'armasi”*ni tashkil etish taklifi ilgari surilgan.

JPKning 304-moddasi birinchi qismining 6-bandida nazarda tutilgan *“boshqa xarajatlar”* jumlasiga izoh berilmaganligi sababli huquqni qo'llash amaliyotida mazkur normani qo'llashda turli xil tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Sanab o'tilgan omillarni inobatga olib, tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan

olingan rasmiy ma'lumotlar, N.A. Kuldashev, V. Zimin va G'. Shodiyev kabi olimlarning ilmiy ishlari, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi hamda fuqarolik sudlari tomonidan qabul qilingan ajrimlarni tahlil qilgan holda *"boshqa xarajatlar"* deganda quyidagilarni tushunish lozimligini taklif etgan: reabilitatsiya etilgan shaxsning, uning yaqinlari yoki merosxo'rlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv, tergov, sud idoralariga yoxud jazoni ijro etish muassasalariga borish-kelish uchun sarflangan yo'l xarajatlari; mazkur vaqt oralig'ida ovqatlanish, mehmonxona, dori-darmon, oziq-ovqat, uyali aloqadan foydalanilganlik uchun sarf etgan xarajatlar; boy berilgan foyda va boshq.

Muallif tomonidan reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan mulkiy ziyonning doirasi va miqdorini aniqlab, to'liq qoplanilishini ta'minlash borasida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar atroflicha o'rganilib, ularning sabablari va imkon bergan shart-sharoitlari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan holda tergov organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, reabilitatsiya etilgan tadbirkorga, uning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan qonunga xilof ravishda mahrum qilingan (cheklangan) vaqt davomida, uning ishlab topishi mumkin bo'lgan daromadi va boy berilgan foydasini hisoblashda ayrim tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Dissertant bu kabi tushunmovchiliklarga barham berish hamda mazkur sohadagi qonun normalarini to'g'ri va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida tadbirkorning daromadi va boy berilgan foydasini hisoblashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillarni normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirish zaruratini asoslantirgan.

Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumga yuridik yordam ko'rsatilishi uchun aksariyat holatlarda uning qarindoshlari, yaqinlari yoki faoliyat olib borayotgan mehnat jamoasi hisobidan pul to'lovlari amalga oshirib kelinmoqda. Lekin e'tiborli tomoni shundaki, amaldagi JPKning 304-moddasi birinchi qismining 6-bandida yuridik yordam ko'rsatilishi uchun advokatlarga faqat shaxs tomonidan to'langan pul qoplab berilishi nazarda tutilgan. Dissertant, shaxsning qarindoshlari, yaqinlari yoki faoliyat olib borayotgan mehnat jamoasi hisobidan yuridik yordam ko'rsatilishi uchun advokatlarga qilingan pul to'lovlarining qoplanmay qolishiga sabab bo'layotganligini inobatga olib, amaldagi JPKning 304-moddasi birinchi qismi 6-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan.

Tadqiqotda tergovga qadar tekshiruv va tergov organlarining jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish qarori bekor qilinib, qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida JPKning 84-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatish yoki sudning ayblov hukmi e'lon qilinguniga qadar tergovga qadar tekshiruvni o'tkazgan va ishni qo'zg'atishni rad etish haqidagi qarorni qabul qilgan tegishli mansabdor shaxs hamda uning rahbarlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha taqdimnomalar kiritish amaliyotiga barham berish zarurati asoslantirilgan. Anketa so'rov natijalariga ko'ra, 88 foiz respondent bildirilgan taklifni qo'llab-quvvatlagan.

Shuningdek, tadqiqotchining fikricha, aybsizlik prezumpsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan (ayblanayotgan)

tergovga qadar tekshiruv, tergov va sud organlarining xodimlariga nisbatan tergov olib borilayotgan yoxud sudda ko'rilayotgan jinoyat ishi bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinmagan bo'lsa, xodimga va uning rahbariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin emas.

Xodimga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq tugatilgan, shuningdek, sudning ayblov hukmi bekor qilinib, uni rehabilitatsiya etish to'g'risidagi oqlov hukmi (ajrim) qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab bir oy muddatda, ushbu ish doirasida uning rahbariga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yechilishi, intizomiy jazo o'tab bo'lingan bo'lsa, u jazolanmagan deb topilishi, jarima tarzida jazo qo'llanilgan bo'lsa undirilgan pul mablag'i unga qaytarilishi, bu haqda mehnat jamoasida rasman e'lon qilinishi, jazo tariqasida kadrlar ixtiyoriga olingan muddati uchun to'lanmagan barcha ish haqi hamda navbatdagi maxsus unvoni kechiktirilgan vaqt uchun to'lanishi lozim bo'lgan pullar hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlar to'lanishi lozimligini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarorida aks ettirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

